


# **Termiz shahrida 148 nafar turli soha fidoyilari O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 30 yilligi esdalik nishoni bilan taqdirlandi**



Termiz shahrida 148 nafar turli soha fidoyilari O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 30 yilligi esdalik nishoni bilan taqdirlandi  
Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda shahar hokimi Isroil Xudayberdiyev so'z olib, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy salohiyatini, tinchlik va barqarorlikni asrash, milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarimizni vatanparvarlik va istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shib kelayotgan ko'krak nishoni sohiblarini muborakbod etdi.